



Shahrisabz tumanining mustamlakachilik davrida ma'daniy hayoti

Miliyeva Difuza Usanboyevna

Osiyo texnologiyalar universiteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Shahrisabz tumanining mustamlakachilik davrida ma'daniy hayoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u ko'plab tarixiy jarayonlar va madaniy aloqalar bilan bog'liqdir. Shahrisabz, Amir Temur davrida o'zining madaniy markazlaridan biri sifatida tanilgan bo'lsa, mustamlakachilik davrida, ayniqsa XIX asrda, uning madaniy hayoti va rivojlanishi, o'zgarishlarga uchragan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, mustamlakachilik, me'morchilik, xalq san'ati, infratuzilmasi.

XIX asrda, Shahrisabz Rossiya imperiyasining tarkibiga kirganidan so'ng, shaharning ma'daniy hayotida katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu davrda Shahrisabz xalqning an'anaviy madaniyati, me'morchilik sohalari tarixiy yodgorliklari tubdan o'zgardi. Mustamlakachilik davrida Shahrisabzda o'zgacha siyosiy va iqtisodiy sharoitlar yaratildi. Shuningdek, Rossiyaning iqtisodiy va madaniy siyosati, o'zining ta'sirini ko'rsatmay quymadi. Mustamlakachilik davrida Shahrisabzda san'at va madaniyatning rivojlanishi ko'proq rus madaniyati ilgari surildi. Rossiya imperiyasining siyosiy ta'siri ostida, Shahrisabzda ko'plab yangiliklar kirib keldi, bu esa mahalliy xalqning an'anaviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatdi. Qashqarayoning boshqa hududlari kabi, Shahrisabzda ham



yangi rus san'ati, adabiyoti va musiqa madaniyatlari kirib keldi. Bu jarayon, albatta, mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashidi va qisman o'zaro ta'sirlar ko'rsatdi. Shahrisabzning mustamlakachilik davrida me'morchilikda, binokorlik va hunarmandchilik sohalarida ham o'zgarishlar yuz berdi. Amir Temur davrida qurilgan ko'plab yodgorliklar, masalan, Qurichiboq masjidi, Shamsiddin Kulol maqbarasi, hammomlar va boshqa tarixiy obidalar mustamlakachilik davrida ham saqlanib qoldi. Biroq, bu davrda, ba'zi yodgorliklar ustidan amalga oshirilgan ta'sirlar, ularning asl shakllarini bir muncha o'zgartirdi, ayrim obidalar esa parchalandi yoki o'zgartirildi. Mustamlakachilik davrida Shahrisabzda ta'lim tizimi va madaniy almashinuv yangi bosqichga ko'tarildi. Rossiya hukumatining ta'lim siyosati va milliy madaniyatga qarshi yondoshuvi Shahrisabz xalqining madaniy hayotga ham ta'sir qildi. Shahar markazida rus maktablari ochildi, lekin mahalliy madaniyat va ta'lim tizimi ham saqlanib qoldi. Bu davrda aholi o'rtasida o'zbek adabiyoti va tilini saqlashga bo'lgan harakatlar boshlandi. Shahrisabzda o'ziga xos ijtimoiy hayot davom etar edi. Mustamlakachilik davrida, shahar hayotida ko'proq savdo va sanoat sohalarida e'tibor qaratila boshladi. Biroq, xalqning an'anaviy faoliyatlari, jumladan, hunarmandchilik va qo'l mehnatiga asoslangan mahsulotlar turlariga, qarshi kurashlar davom etdi. Mahalliy fuqarolar o'z ijtimoiy faoliyatlarini va madaniyatlarini saqlashga intildilar. Shahrisabz tumanining mustamlakachilik davrida ma'daniy hayoti Rossiya imperiyasining ta'siri ostida bir qancha o'zgarishlarga uchradi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Shahrisabz va boshqa o'zbek yerlariga mustamlaka xalqlarni ko'chirib keltirilishi aholining iqtisodiy va siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shahrisabzning tarixiy me'morchilik obidalari, xususan, Amir Temur davrida qurilgan obidalarga, mustamlakachilik davrida unchalik e'tibor berilmadi. Rossiya imperiyasining siyosiy va ijtimoiy ta'siri ostida, me'moriy uslublarda ba'zilariga o'zgartirishlar kiritildi. Shu bilan bir qatorda shaharda eski madaniy merosni saqlashga ham katta e'tibor berildi. Bu davrda bir qator tarixiy yodgorliklar rekonstruksiya qilindi, lekin ayrim joylarda rus arxitekturasining ta'sirini ham ko'rish



mumkin. Rossiya mustamlakachilik davrida, ta'lim tizimi ham o'zgarishga uchradi. Shahrisabzda rus tili va madaniyati asosida yangi ta'lim tizimi tashkil qilindi. Rus maktablari ochilib, u yerda rus tilida o'qish, barcha fanlar ham rus tilida olib borildi. Shu bilan birga, o'zbek xalqining an'anaviy ta'lim tizimi va diniy ta'lim (masalan, madrasalar) ham faoliyatini davom ettirildi. Shahrisabzda ko'plab yoshlarga ta'lim beriladigan bo'lib, ular o'z madaniyatini saqlash va yangi bilimlarni o'zlashtirishga harakat qildilar. Mustamlakachilik davrida Shahrisabzda hunarmandchilik, ayniqsa, gilam to'qish, naqshinkorlik, zargarlik, bo'zchilik, urchuq to'qish va kulolchilik kabi an'anaviy san'atlar rivojlanishda davom etdi. Yangi uslubdagi zamonaviy texnologiya va texnikalar kiritildi, bu esa Shahrisabzning iqtisodini yanada rivojlanishiga xizmat qildi. Shahrisabz tumanida mustamlakachilik davrida milliy urf odatlar va diniy marosimlar chekka qishloqlarda ayniqsa saqlanib qoldi. Mahalliy xalqlar o'z an'alarini va dinlarini, asosan islomni, hurmat qilib, diniy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qildilar. Shu bilan birga, Rossiya hukumatining siyosiy ta'siri, ba'zida o'zbek xalqining milliy huquqlari va madaniyatini cheklashga harakat qilgan bo'lsa-da, xalq o'zining madaniy merosini izsiz ketishiga yo'l qo'yilmadi va o'z hayotida diniy va milliy qadriyatlarni davom etdi.

Xulosa:

Shahrisabzning mustamlakachilik davridagi ma'daniy hayoti o'zgarishlar va yangiliklar to'la davr bo'ldi. Rossiya imperiyasining ta'siri, mahalliy madaniyat bilan o'zaro aloqalar, san'at va ta'lim-tarbiya tizimlaridagi o'zgarishlar Shahrisabzda ko'plab yangi maddiy va madaniy qatlamlarni yuzaga keldi. Biroq, shaharning tarixiy obidalari va me'moriy an'anaviy madaniyati o'z shaklini saqlab qolindi. Shahrisabz tumanining mustamlakachilik davrida ma'daniy hayoti Rossiya imperiyasining ta'siri ostida rivojlandi va o'zgarishlarga duchor bo'ldi. Rus madaniyati va san'ati Shahrisabzda keng yoyildi lekin shu bilan birga, o'zbek xalqining hunarmandchilik, an'anaviy madaniyati, san'ati, ta'limi -



tarbiya va me'morchiligi ham saqlanib qoldi. Milliy qadriyatlar va diniy ilmlar aholi qalbida doim jo'sh urar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shahrisabz — Ming yillar merosi, T., 2002; Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o'рни, T., 2002
2. Oybek Xolmatovning "Qadimgi Shahrisabz tarixidan lavhalar" Toshkent Yangi asr avlodi-2014
3. O'zbekiston Resublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 25 martdagi 87-sonli qarori.
4. Shahrisabz tumani KESH gazetasi-1-son 2025/28/01